

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro‘yxatga olindi
№ MO2-XXI-3
2024-yil

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirining
2024-yil “27” dekabrda
485 - sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan.

Oliy ta’lim muassasalarining yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo’yicha prorektor, ma’naviyat ishlari bo’yicha dekan o‘rinbosarlari, yoshlar
masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha mas’ul rahbarlari uchun

“MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYAT MENEJMENTI”

yo‘nalishi bo’yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini
Muvofiqlashtiruvchi kengashining
2024-yil “24” dekabrda 12 - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Tuzuvchilar: “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyat rivojining ma’naviy asoslari” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, s.f.d., prof. O.Sirojov.
“Oliy ta’limning normativ huquqiy asoslari” moduli: yu.f.d., prof. V.R.Topildiyev.
“Oliy ta’lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” moduli: yu.f.d., prof. B.I.Ismailov.
“Ta’lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi” moduli: katta o‘qituvchi R.J.Ishmuxamedov., p.f.f.d., (PhD), dots. A.S.Djurayev.
“Oliy ta’limni boshqarishda raqamli texnologiyalar” moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, t.f.n., dots. V.A.Karimova, tadqiqotchi H.Nomozov.
“Boshqaruv psixologiyasi va liderlik” moduli: p.f.d., prof. M.Akramov, i.f.f.d., dots. A.X.Xolov.
“Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish” moduli: i.f.f.d., (PhD) L.Mingishov.
“Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning strategik boshqaruvi” moduli: p.f.d., prof. M.Quronov.
“Tuyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish” moduli: f.f.f.d., (PhD) M.A.Yunusov.
“Oliy ta’lim muassasalarida “Yashil madaniyat”ni shakllantirish vazifalari” moduli: i.f.f.d., (PhD) L.Mingishov

Taqrizchilar: f.f.d., R.Xudoyberganov
p.f.d., prof. F.Zakirova

O‘quv dasturi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.
(2024-yil “13” noyabrda 2 -sonli bayonnoma)

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son, 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-son, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 797-son, 2024-yil 11-iyuldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmunida yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari, oliy

ta'lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ta'lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi, oliy ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalar, boshqaruv psixologiyasi va liderlik masalalari qamrab olinadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular tinglovchilarni oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning strategik boshqaruvi, tuyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish, oliy ta'lim muassasalarida "Yashil madaniyat"ni shakllantirish vazifalari bo'yicha zaruriy yangi bilim, ko'nikma va malakalarni hamda kompetensiyalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi quyidagi o'quv modullaridan iborat:

1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari.

1.3. Oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

1.4. Ta'lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi.

1.5. Oliy ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalar.

1.6. Boshqaruv psixologiyasi va liderlik.

1.7. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish.

1.8. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning strategik boshqaruvi.

1.9. Tuyutorlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.

1.10. Oliy ta'lim muassasalarida "Yashil madaniyat"ni shakllantirish vazifalari.

Kursning maqsadi va vazifalari

"Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat menejmenti" kursining maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, ma'naviyat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosarlari, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul rahbarlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish asosida ularda ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali boshqarish malakalarini egallashlariga qaratilgan.

"Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat menejmenti" kursining vazifasi – oliy ta'lim muassasalarining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, ma'naviyat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosarlari, yoshlar masalalari va

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul rahbarlarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'zlashtirish, ta'lim muassasasida boshqaruv faoliyatini tashkil etish va olib borish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini;
- siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishini;
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyatini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida" Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni

va mohiyatini;

- “Yashil” madaniyatni shakllantirish masalalarini;
- ta’lim menejeri innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari, shakllarini;
- innovatsion kompetentlik va uning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- ta’lim menejerining innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari, professionallikka erishish darajalari, ko‘rsatkichlari, texnikasini;
- raqamlashtirish va raqamli transformatsiyaga kirish: asosiy ta’riflar, tushunchalar, maqsad va vazifalarni;
- raqamli transformatsiyaning asosiy komponentlarini;
- murakkab infratuzilma va platformalarni;
- oliy ta’limni boshqarish axborot tizimi (HEMIS) va uning rolini;
- transformatsiyada raqamli texnologiyalarni;
- ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini;
- ta’limda sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlarini;
- Katta ma’lumotlar (Big Data) va ilg‘or analitikani;
- oliy ta’limda AR/VR texnologiyalari hamda raqamli egizaklarni;
- ochiq ta’lim resurslari (OER) va ulardan foydalanish litsenziyalarini;
- buyumlar interneti (IoT) va “aqlli” kampuslarni;
- bilimlarni sinash va baholashning aqlli tizimlarini;
- boshqaruv jarayonini tashkil etishning psixologik omillarini;
- tashkilotda boshqaruv va menejmentning umumiy xususiyatlarini;
- rahbar va unga qo‘yiladigan psixologik talablarni;
- boshqaruvda liderlik va rahbarlik uslublarini;
- oliy ta’limni boshqarishga tizimli tahlil asoslarini;
- tizim darajalari va ierarxiyalari nazariyasini;
- ta’lim jarayonida strategik qarorlar qabul qilish va farsaytning mazmunini;
- oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga oid normativ huquqiy asoslarini;
- oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjatlar tushunchasini;
- oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammo va ularning yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlarni;
- kitobxoblik mutolaa madaniyatini;
- ijtimoiy media orqali ta’limda axborot tarqatishning zamonaviy usullarini;
- oliy ta’lim muassasalarida “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”ni amalga oshirish mexanizimlarini;
- oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi: amaliyot tahlili, muammo va echimlarni;
- ma’naviy-axloqiy tarbiya natijadorligini o‘lchash, samaradorlik auditini;
- tuyutorlik tizimining ta’lim muassasasidagi o‘rni va ahamiyatini;
- talabalar bilan ishlashda individual va jamoaviy yondashuvlarni;
- tuyutorlar tomonidan amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejalarini;

- stress va nizolarni boshqarish strategiyalarini;
- tuyutorlarning ish faoliyatini nazorat qilish mezonlarini;
- motivatsiya strategiyalari va individual yondashuvlarni;
- yashil madaniyat: tushunchasi, mohiyati va ahamiyatini;
- ekologik ong va yashil madaniyatning ijtimoiy va axloqiy tamoyillarini;
- barqaror rivojlanish maqsadlari va yashil madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni;
- ta'lim muassasasida suv, energiya va materiallarni tejash strategiyalarini;
- yashil madaniyatni rivojlantirishda rahbarlarning roli va mas'uliyatini;
- oliy ta'limda yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llarini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston-2030" strategiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
- milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari bilan ishlash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- zamonaviy ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmuni va mohiyati, shakllanish bosqichlari, shakllarini ochib berish;
- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari, professionallikka erishish darajalari, ko'rsatkichlarini tahlil etish hamda texnikasini qo'llash;
- oliy ta'lim muassasasida o'zgarishlarni boshqarish va raqamli madaniyatni shakllantirish;
- bulutli infratuzilma (IaaS, PaaS, SaaS) va uni oliy ta'lim muassasalarida qo'llash prinsiplariga rioya etish;
- kiberxavfsizlik orqali ma'lumotlarni himoya qilish;
- zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI) ning ahamiyatini ochib berish va baholash;
- boshqaruv faoliyatining psixologik jihatlarini tahlil etish;
- boshqaruv psixologiyasining mohiyatini ochib berish;
- boshqaruv usullarini qo'llash;
- boshqaruv samaradorligini ta'minlaydigan shaxs sifatleri tavsifini amalga oshirish;

- tashkilotda jamoa va guruhlarni boshqarishning o'ziga xosligini tahlil qilish va baholash;
- guruhning samarali faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillarning psixologik tahlil etish;
- muzokara modellari, muzokara uslublaridan foydalanish;
- tizim darajalari va ierarxiyalari nazariyasi: universitetda vertikal va gorizontal boshqaruv tuzilmasini tahlil qilish;
- ta'lim sifatini ta'minlashda strategik qarorlar qabul qilish va forsayt texnologiyalardan foydalanish;
- normativ-huquqiy xujjatlarning turlaridan foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolarni tahlil etish va ularning yechimlarini topish;
- mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashishda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- ma'naviy indikatorlarni yaratish;
- ijtimoiy media vositalarini ta'limga tadbiq etish;
- oliy ta'lim muassasalarida "Jaholatga qarshi ma'rifat" texnologiyasini amalga oshirish yo'llari (keys, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, "1 tahdidga 5 zarba") dan samarali foydalanish;
- tuyutorlar faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish;
- talabalar orasida g'oyaviy immunitetni oshirish usullaridan foydalanish;
- ijtimoiy tarmoqlarda talabalarning ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- ekologik bilimlarni tarqatish va talabalarda yashil turmush ko'nikmalarini shakllantirish;
- tuyutorlarning ish natijalarini tahlil qilish va hisobot berish;
- oliy ta'lim muassasalarida yashil madaniyatni shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida ekologik siyosatni amalga oshirish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar bilan ishlash;
- davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini o'zlashtirish;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

- me'yoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribalardan samarali foydalanish;

- ta'lim menejerining kasbiy professionalligi mazmuni va uni innovatsion faoliyatda (boshqaruvda, ishlarni NOT prinsiplari asosida tashkillashtirishda, xodimlar bilan ishlashda, shaxs va jamoaga ta'sir etishda) namoyon bo'lishini tahlil etish va baholash;

- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida aktyorlik va rejissyorlik elementlaridan foydalanish, ijodkorlik, novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash;

- raqamli transformatsiyada kontentning rolini yoritib berish;

- sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini baholash;

- raqamli kontentni yaratish, boshqarish va tarqatish;

- malaka oshirish kurslarini tashkil etishda mobil ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;

- rahbar faoliyatini psixologik tavsiflash;

- shaxsning individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ajratish;

- shaxsning ijtimoiy-psixologik sifatlariga individual xususiyatlarning ta'sirini o'rganish;

- rahbarning shaxsiy sifatlarini baholash;

- boshqaruv muloqotining ilmiy-amaliy jihatlarini tahlil etish;

- boshqaruv uslublarining psixologik xususiyatlarini o'zlashtirish;

- guruhdagi tarkibiy elementlar tahlilini amalga oshirish;

- guruhda axborot almashinuv jarayoni tahlil qilish;

- oliy ta'limni boshqarishda tizimli tahlil va tizimli yondashuvni qo'llash;

- ta'lim tashkilotining ichki baholashini tashkil etish, zarur ma'lumotlarni olish, o'rganish, tahlil qilish va ichki baholash hisobotni tayyorlash;

- normativ huquqiy xujjatlarga qo'yiladigan talablarga rioya etish;

- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish;

- ma'naviy indikatorlarni yaratish;

- ta'lim muassasalarida ijtimoiy media platformalarining o'rnini yoritib berish;

- oliy ta'lim muassasalarida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"ni amalga oshirishni boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasasi "Ma'naviyat sektori" faoliyatini tashkil qilish va boshqarish;

- madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va ularning talabalarga ta'sirini o'rganish;

- tuyutorlarning talabalarga yetakchilik va motivatsiya berishdagi rolini tahlil etish va baholash;

- tuyutorlik faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;

- Facebook, Instagram, LinkedIn, Twitter, Telegram, YouTube kabi platformalarning ta'limdagi imkoniyatlaridan foydalanish;
- yashil madaniyatga oid tadbirlarni tashkil qilish;
- oliy ta'lim muassasalarida energiya va resurslardan samarali foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbqiq etish istiqbollari belgilash;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ularni amaliyotda qo'llash;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish, amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish;
- ta'lim menejerining professionalligida talant, tajriba va javobgarlik birligi, diqqatini jalb etish usullarini egallash;
- muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya misollari va keyslar yaratish;
- onlayn-dasturlar va gibridd formatlarni boshqarishning eng yaxshi tajribalarini amaliyotga tadbqiq etish;
- ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari aniqlash;
- oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi (HEMIS) orqali ma'muriy va ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda oliy ta'lim muassasasi samaradorlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish;
- boshqaruvda liderlik va rahbarlik uslublaridan samarali foydalanish;
- boshqaruv strategiyasini joriy etish va amalga oshirish;
- muzokaralardagi qiyinchiliklar, to'siqlar, mojarolar, manipulyatsiyalarni oldini olish;
- talabalarni Vatanga sadoqat, o'zaro mehr oqibat, yuksak mas'uliyat, bag'rikenglik, sog'lom dunyoqarash, kitobxonlik va media madaniyat, shukronalik, huquqiy, siyosiy, AKT savodxonligi, innovatsion fikrlash, vatan taraqqiyotiga daxldorlik, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlarni amalga oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarni m'naviyat va marifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish;
- jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan ishlash mexanizmlarini

amaliyotga joriy etish;

- oliy ta'lim muassasasida Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoni samaradorligining funksional KPI tizimini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasasini m'naviy-ma'rifiy faoliyatning rivojlanish strategiyasini shakllantirish;

- tuyutorlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

- Digital vositalar va platformalardan foydalanish;

- tuyutorlik tizimining ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil etish va baholash;

- elektron hujjat aylanishi va ish jarayonlarini raqamlashtirish;

- tuyutorlik faoliyatida kuzatuv va monitoring tizimlarining ahamiyatini ochib berish;

- oliy ta'limda ekologik etika va yashil qadriyatlarni targ'ib qilish;

- yashil madaniyatni rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish va maqsadlarni belgilas;

- ekologik infratuzilmani rivojlantirish va barqaror boshqaruv tamoyillarini joriy etish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

“MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYAT MENEJMENTI” YO‘NALISHI BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O‘QUV MODULLARI VA ULARNING MAZMUNI

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyat rivojining ma’naviy asoslari.

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va oqibatlar. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy

himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari, "Yashil" madaniyatni shakllantirish masalalari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rni, O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari.

Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarining turlari. Normativ huquqiy hujjatlarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim

yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal hujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish.

1.3. Oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

1.4. Ta'lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi.

